

"O'ZBEK ADABIYOTIDA DRAMA JANRINING PAYDO BO'LISHI" (FITRAT DRAMALARI MISOLIDA)

*Termiz davlat universiteti Adabiyotshunoslik: o'zbek adabiyoti mutaxassisligi 2-
kurs magistri*

Qlicheva Go'zal Chorshanbiyevna

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbek adabiyotida drama janrining o'rni va ahamiyati uning kirib kelish jarayonlari haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Dramaturgiya, Fitrat, "Abdulfayzxon", xalq, harakat, syujet, xususiyat, munosabat.*

O'zbek dramaturgiyasining paydo bo'lishi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Qadimda xalq orasida turli bayram va sayllarda, marosimlarda turli tomoshalar tashkil etilgan. Bu tomoshalarda xalq orasida chiqqan qiziqchi-mas'harabozlar qiziqarli chiqishlar, sahna ko'rinishlari ijro etib, tomoshabinlarni xushnud qilishgan. Ular o'zlarining kulgili hangomalari, latifalari bilan xalq orasida og'zaki milliy dramaturgiyaga asos solishgan. Drama so'zi yunoncha so'z bo'lib, 'harakat' degan ma'noni anglatadi. Syujetlilik, harakatlarning ziddiyatga asoslanishi va ularning sahna, epizodlarga bo'linishi, bayonning yo'qligi, personajlar munosabatlarining o'zaro so'zlashuvga asoslanishi dramaning o'ziga xos xususiyatidir. Ijtimoiy muammolarni aks ettiruvchi dramatik ziddiyatlar qahramonlarning xatti-harakatlarida, avvalo, dialog va monologlarda ifodalanadi. Drama matni ko'rishga (imo-ishora, harakat), shuningdek, eshitishga mo'ljallanadi; u sahnaviy makon, zamon va teatr texnikasi imkoniyatlariga ham muvofiq keladi. Drama adabiy asar sifatida aktyor, rejissyor tomonidan sahnada o'z talqinini topadi. Drama tufayli teatr san'ati yuzaga kelgan va u kino san'ati uchun ham asos bo'lgan. O'zbek dramaturgiyasi uzoq yillik, aniqrog'i bir asrlik boy tarixga ega. Mana shu bir asrlik vaqt orasidagi o'zbek milliy dramaturgiya faoliyatini ikki davrga bo'lib o'rganish mumkin. Birinchi davr, 1913-1990 yillarni o'z ichiga qamrab olgan salkam 80 yillik muddat. Ikkinchi davr, mustaqillik davri ya'ni 1991 va undan keyingi yillarni o'z ichiga oladi. XX asrning 10-20 yillari orasida Turkistonda ma'rifatparvarlik g'oyalarini keng targ'ib qilgan jadidchilik harakatining namoyandalari matbuotda o'z maqolalari bilan faol qatnashganlar. Lekin bu yurt aholisining 80% i savodsiz bo'lganligi sababli matbuotdan foydalanishni bilmagan. Shuning uchun jadidchilar xalq orasida teatr tomoshalarini o'ylab topib, mahalliy aholi orasidan ko'ngillilardan iborat teatr truppalari tashkil etishgan. Jadidchilarning asosiy maqsadi o'zbek millatini savodsizlikdan chiqarish, ilm-ma'rifatli qilish va insonlar ma'naviyatini oshirish bo'lgan. Ular o'z maqsadlarini teatr orqali amalga oshirish uchun astoydil bel bog'laganlar.

Hayotda ziddiyatlar keskin va sokin bo'lgani singari badiiy konfliktning ham turli ko'rinishlari mavjud. Ular qahramonlar o'rtasidagi oshkora kurash tarzida ham, personajlarning o'z o'z ko'nglidagi olishuvlar tarzida ham nomoyon bo'ladi. Shuningdek

badiiy konflikt har bir adabiy tur va janrda o'ziga xos tarzda ifodalangan bo'ladi. U drama (komediya, tragediya, pyesa) asarlarida tamoman boshqacha holda ko'rinadi. Umuman har bir barkamol badiiy asar konflikt, shakl va mavzu, mazmun va g'oya singari o'z unsirlarini qay tarzda namoyon etishidan qat'iy nazar, u hayotning muayyan bir ko'rinishini ta'sirchan akslantirgan, ijodkor yaratgan go'zallikdir. Badiiy asarning ichki va tashqi dunyosi esa uning tuzilishi, sujetidagi voqealarning joylashishi, qahramonlar va ular orasidagi munosabatlar majmuidan iboratdir.

Fitrat merosida dramaturgiya ham son, ham salmoq jihatidan katta o'rin tutadi. Manbalar guvohlik berishicha, Fitrat, taxminan, o'n beshga yaqin drama yozgan... Ular orasida drama ham, komediya, tragediya va hatto opera librettosi ham bor. Biroq bu ulkan dramatik merosning yarmidan ko'pi nashr etilmagani bois, bizning kunlarimizgacha saqlanmagan (yoxud hozirgacha topilmagan).

Fitrat dramaturgiyasi mavzu, qahramon va muammolar jihatidan rang-barangdir.

“Chin sevish” dramasida biz oldingi Fitrat, ya'ni g'arb ilm-fanini o'rganishga bo'lgan targ'ibotning boshqa bir darajaga o'tgani, ya'ni siyosiy jihatdan yetuklikka erishgan Fitratni ko'ramiz. U asar qahramoni Karimbaxsh tilidan bu kabi g'oyalarini quyidagicha ifodasini kuzatish mumkin: “Ovrupo ishlarini o'rganmak albatta kerakdir. Ovrupoda o'qimoq oprupolilarni insofli, adolatli deb maqtamoq uchun emas, ulardan o'zimizni saqlamoq, tishli-tirnoqli bo'lish uchun kerakdir.” Bu so'zlar hozirgi kundagi ba'zi odamlarga, ya'ni o'z vatanini qo'yib g'arb davlatlarini maqtab, ularning tili va madaniyatini o'zlashtirib olyotgan insonlarga ham tegishlidir. Bu so'zlardan Fitratning asarlari va so'zlari davr va zamon tanlamasligining yana bir bor guvohi bo'lamiz.

Fitrat bundan biroz avvalroq yozilgan “Sharq siyosati” nomli maqolasida G'arbgaga bo'lgan munosabatini, uning haqiqiy siyosati nimada ekanligini ochib tashlagan edi. Bir vaqtlar “Sharqda madaniyat maktablari, insoniyat madrasalari ocharmiz” degan bahona bilan Turkistonni qonga botirib, uning yuzini toptagan bosqinchi “jahongirlari fohishaxona va mayxonadan boshqa bir narsa” olib kelmadi. Fitrat shu o'rinda o'ziga o'zi savol beradi: “Ajabo, Ovrupa jahongirlari bu ishlarini bilibmi qildilar, bilmasdanmi qildilar?” Javobi esa “Albatta, bilib qildilar, jo'rttaga qildilar”. Fitrat maqolasida mustamlakachilarning asosiy maqsadlari qo'l ostiga olingan mazlum xalqqa “madaniyat berish”, “maorif tarqatish”, “taraqqiy etdurmak” emas, “turli fohishaxonalar, mayxonalar ochib, bizning axloqimizni buzmoq” va oxir oqibatda “bizni ishdan chiqarmoq va o'z qo'llarig'a muhtoj qilib qo'ymoqdir”. Fitrat bu fikrlarni yozar ekan, siyosiy jihatdan ancha yetishgan, xalqni haqiqiy ahvoldan boxabar qilish uchun hech narsadan tap tortmay fikr yuritadigan shaxs sifatida ko'rinadi.

Mantiqan olib qaraganda “Hind ihtilolchilari”ni “Chin sevish”ning davomi deyish mumkin. Lekin ular ayri ikki asar. “Hind ihtilolchilari”da Fitratning ona Vatanga bo'lgan muhabbati, uning erki uchun hamma narsaga tayyor bo'lgan “Yurtimizni qutqaramiz. Yashasin istiqlol!”, deb mustabid tuzumga qarshi qo'zg'algan isyonkorni ko'ramiz. Uning 1922-yili nashr etilgan “O'zbek yosh shoirlari” to'plamidan joy olgan “O'gut” she'rida

Fitratning yurt erkinligi uchun kurash, bir daqiqa ham hurriyatga erishish maslagidan qaytmaslikka undov juda yaxshi ko'rinadi.

Fitrat o'z dramalarida, she'rlarida Sharq, xususan, Hindiston xalqining mustamlakachi inglizlarga qarshi kurashi orqali ona Vatan – Turkistonning tuganmas dardlarini ifoda qildi. Fitrat Hind materialini asosida Turkiston dardini badiiy gavalantiradi.

Fitrat merosida dramaturgiya ham son, ham salmoq jihatidan katta o'rin tutadi. Manbalar guvohlik berishicha, Fitrat, taxminan, o'n beshga yaqin drama yozgan... Ular orasida drama ham, komediya, tragediya va hatto opera librettosi ham bor. Biroq bu ulkan dramatik merosning yarmidan ko'pi nashr etilmagani bois, bizning kunlarimizgacha saqlanmagan (yoxud hozirgacha topilmagan).

Buxoro xonligidagi dehqonlar hayoti va qismati tasvirlangan «Arslon», imonsiz kishilar fosh etilgan «Ro'zalar» kabi ayrim dramatik asarlarini hisobga olmaganda, Fitratning sahnada qo'yishga mo'ljallangan aksar pyesalarini bir umumiy ruh, umumiy yo'nalish birlashtirib turadi. Mana bu ruh va yo'nalishni birlashtirib turuvchi muammo va g'oyalar Vatan ozodligi uchun kurash va mustaqillik, qahramonlik, kuch va zo'ravonlikka qarshi is'yon, adolatsiz toj-taxtning barbod bo'lishi, erk va Istiqlolni ulug'lashdir.

O'sha davrda yashagan Fitratning maslakdosh do'stalaridan bo'lgan Cho'lponning gaplaridan ham Fitratning qanchalik mahoratli dramaturg ekanini bilib olishimiz mumkin.

1924 yilda yaratilgan "Abulfayzxon" tragediyasini Fitrat dramaturgiyasining cho'qqisi deyish mumkin, chunki unda shafqatsiz tarix sabog'i yuksak badiiy haqiqat darajasiga ko'tarilgan va insoniyat cheksiz qon to'kishlar oqibatida dahshatli fojialarga yuzlanishi mumkin ekanligi aks etkan. «Abulfayzxon» XVIII asr Buxoro hayotidan olib yozilgan, tarixiy haqiqat asosiga qurilgan birinchi tarixiy tragediyadir. O'zining yuksak yaratilish usuliga ko'ra, bu drama Fitrat ijodiy yo'lining yetuklik bosqichi boshlanganligidan guvohlik bergan. Qahramonlarni jonli, hayotiy, tarixiy haqiqatga mos tarzda realistik aks ettirish, ayniqsa. «Abulfayzxon» tragediyasida yorqin namoyon bo'ldi. «Abulfayzxon» nainki, Fitrat ijodi, balki, umuman, o'zbek dramaturgiyasidagi shoh asarlardan biridir. Tragediya badiiy jihatdan teran. U obrazlar tizimidagi puxtalik, kompozitsion qurilishdagi uyg'unlik, badiiy tildagi jozibasi bilan ajralib turadi. Asarning yetakchi g'oyaviy-badiiy maqsadi zo'ravonlik, o'zgalarni qullarcha itoatda tutish, taxt va mansab dunyosi barcha razilliklar manbaidir degan muammoni yoritishga qaratilgan. Dramada Buxorodagi Ashtarxoniylar sulolasining oxirgi namoyandasi Abulfayzxon hokimiyatining tanazzuli va mang'itlar sulolasining hokimiyatga kelishi aks ettirildi.

Ma'lumki, drama Mir Vafo va Qozi Nizomning shaxmat o'yinlari bilan boshlanadi. Yozuvchi bu o'yinni bejiz tanlamagan, shaxmat o'yini zamirida qaysidir ma'noda fojiada qatnashadigan obrazlarning o'zaro ziddiyati, qaysi tomonning yutishi va yutqizishiga ramzan ishora ham qilinadi. Ikkinchi tomondan, ko'pincha shaxmat o'yini aqlli va

bekorchi odamlarning ishi sifatida ham talqin etiladi. Shunga ko'ra, xon ishongan mulozimlarning ahvoli, ularning davlatdagi og'ir vaziyatlar bilan ishi bo'lmasdan maishat-u turli o'yinlar bilan mashg'ulligiga ishora qilinadi.

Abulfayzxon taxtni egallagach, eng yaqin kishilaridan ham shubhalana boshladi, ko'pini hibsga olib, birin-ketin qatl etdi. O'tmishdagi bu tarixiy haqiqatni ko'rsatish orqali muallif zamonaviy dardlarni ko'tarib chiqdi. Uning asar asosiga joylagan asl niyati yashirin zulm va zo'ravonlik asosiga qurilgan, bu yo'lda istibdodning hech qanday manfurligidan qaytmaydigan tuzumni fosh etish edi. Bir jihatdan, tarixning qora va og'ir bir davri yorqin ko'rsatib berildi. Ikkinchi bir jihatdan, taxtning yangi egalari bilan birga, o'z yurtiga sotqinlik qilgan amaldorlar ko'magida boshqarilayotgan yangi tuzum va yangi jamiyatning kirdikorlari ham ochib tashlandi.

Xayol obrazi. Asarning asosiy poetik g'oyasini to'la namoyon qiluvchi bu obraz o'z navbatida muallifning yuksak badiiy-estetik tafakkuri mahsuli. U asarning dramatik pozitsiyasini kuchaytiradi, estetik ta'sir doirasini kengaytiradi. Asar badiiyatiga singdirilgan asosiy ziddiyat –toj-u taxt uchun kurash va ezgulik, insof, diyonat, adolat g'oyalari o'rtasidagi kurash Xayol obrazida o'z yechimini topadi va uning monologi muallifning yakuniy xulosasi sifatida gavdalanadi.

Fitratning hayoti va ijodiy faoliyati tarixning eng qaltis damlarida Millat va Vatanga xizmat qilishning yorqin namunasi. Yirik jadidshunos olim Begali Qosimovning so'zlari bilan aytganda, har qanday holda ham xalq bilan birga bo'lish, uning manfaatini har narsadan ustun qo'yish, har narsadan muqaddas bilish Fitrat shaxsiyatining eng muhim xususiyatlaridan edi. Fojidadagi obrazlarning o'zaro ziddiyatlarini, tarixiy haqiqat kim tomonida ekanini tushunish uchun asarni sinchiklab o'qish va ayni damda o'sha davr tarixini ham yaxshi bilish kerak bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. F. Abduvohidov. Dramaturgiya asoslari. T.; 2019. 122 b
2. Boltaboyev H., Fitratning ilmiy merosi, T., 1996.
3. H. Abdusamatov. Drama nazariyasi. T. ; G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va sanat nashriyoti. 2000.
4. Qosimov B., Fitrat. O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1991, 10-son.
5. G'aniyev I., Fitratshunoslik, Buxoro, 1994;
6. Matluba Isokova. "Dramaturg mahorati". T. 2021. 4 b.